https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Qarshiev Avazbek Sa'dullaevich
Iqtisodiyot fakulteti talabasi, Samaraqnd Iqtisodiyot va Servis Instituti,
ORCID ID: 0009-0007-4688-7558
avazbekqarshiyev90@gmail.com
Tel: +998946030823

EKONOMETRIK USULLARI YORDAMID SAMARQAND VILOYATIDA ISH HAQI DARAJASINING PROGNOZINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada Samarqand viloyatida ish haqi darajasining dinamikasi va uning prognozi ekonometrik modellashtirish yordamida tahlili amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotda choraklik statistik ma'lumotlar asosida vaqtli qatorlar tahlili va mavsumiy dekompozitsiya usullaridan foydalanib, ish haqi o'zgarishining trend komponenti, mavsumiy tebranishlar va tasodifiy omillarni hisobga olindi. Olib borilgan tadqiqotning natijasida esa Samarqand viloyati mehnat bozorida ish haqining keyingi ikki yilda o'suvchi tendensiyaga ekanligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan prognoz modeli uchun ishlatilgan statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasining rasmiy veb saytida taqdim etilga ma'lumotlar asosida tuzilgan va shu jihatdan ishonchli bo'lib, viloyat iqtisodiy siyosatini rejalashtirish, byudjetni shakllantirish hamda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ish haqi, prognozlash, vaqtli qatorlar tahlili, regressiya modeli, mavsumiy dekompozitsiya, mehnat bozori, Samarqand viloyati, trend tahlili, statistik prognoz.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining samarali rivojlanishi va ish haqi tizimining takomillashtirilishi har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashning asosiy omili ekanligi hozirgi davrda yangilik emas. Ish haqi nafaqat mehnat faoliyati evaziga olinadigan to'lov, balki

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

aholi daromadlarining asosiy manbai, iste'mol talabining shakllantiruvchi va ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Yurtimizda ham hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va individlar o'rtasida tengsizliklarni kamaytirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Samarqand viloyatida ish haqi darajasining dinamikasini o'rganish va uning kelajakdagi o'zgarishlarini ilmiy asosda prognozlashtirish hukumat uchun dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining real daromadlarini oshirish, mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish va hududlar kesimida ish haqi darajasidagi tafovutlarni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanini ishlab chiqilayotgan hamda amalga tadbiq qilinayotgan chora tadbirlar misolida ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi "Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida"[1]gi farmoni asosida minimal ish haqi va bazaviy hisoblash miqdorlari bosqichma-bosqich oshirib borish ishlari olib borilmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida mehnat bozorining barqaror rivojlanishini, aholining turmush darajasini yaxshilashni hamda ish haqi tizimini shaffoflashtirishni ta'minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu mavzu bo'yicha aniqlangan muammo, viloyat mehnat bozorida ish haqi darajasining o'zgarish qonuniyatlari, mavsumiy tebranishlar, tarmoqlar va kasblar kesimidagi farqlar, shuningdek, demografik va iqtisodiy omillarning ish haqi dinamikasiga ta'siri hali yetarli darajada o'rganilmaganligidir. Ushbu tadqiqotning obyekti Samarqand viloyatidagi mehnat bozoridagi ish haqi tizimi va uning o'zgarish jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti sifatida viloyatda o'rtacha hisoblangan oylik nominal ish haqining choraklik dinamikasi va uni belgilovchi iqtisodiy qonuniyatlar tanlab olingan.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati esa ilmiy jihatdan tadqiqot hududiy mehnat bozorlarida ish haqi dinamikasini tahlil qilish va prognozlashtirish

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PF-138-son "Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-6027058

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

bo‘yicha ekonometrik metodologiyani takomillashtirish, O‘zbekiston sharoitida ish haqi modellashtirish tajribasini boyitish va mintaqaviy iqtisodiy tadqiqotlar sohasiga hissa qo‘shishini aytishimiz mumkin. Ishlab chiqilgan yondashuv boshqa viloyatlar va tarmoqlar uchun ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal metodologik asosni yaratish jihatdan ham bevosita Samarqand viloyati hokimligi, Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘yicha mintaqaviy organlari, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Statistika hududiy boshqarmasi hamda viloyatda faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlar rahbarlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Ish haqini prognozlashda ekonometrik usullarni qo‘llash xalqaro akademik munozaralarda katta e’tiborni tortdi, tadqiqotchilar turli iqtisodiy sharoitlarda ish haqi dinamikasini prognoz qilish uchun turli xil metodologik yondashuvlardan foydalandilar.

So‘nggi yillarda ish haqi darajasining shakllanishi, uning hududlargi tafovutlari hamda iqtisodiy omillarga bog‘liqligi masalasi iqtisodchilar e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Global mehnat bozori sharoitida ish haqi miqdorida yuz berayotgan o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy tenglik va hududiy rivojlanish jarayonlariga ham bevosita ta’sir yangilik emas. Shu sababli ko‘plab xalqaro tadqiqotlarda ish haqi darajasini o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi omillarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ekonometrik modellar yordamida ish haqi dinamikasini bashorat qilish, hududlararo tafovutlarni baholash va mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni tahlil etish lozim.

Agata Luśtyk, Anna Połeć va Inna Voznyuk tomonidan ishlab chiqilgan “Wage Differences in Poland at the County Level and their Determinants” nomli maqolada olimlar Polshaning mamlakat miqyosida individlarning ish haqi farqlari va ularga ta’sir etuvchi omillari: mehnat unumdorligi, ishsizlik darajasi, makro-model va makro-iqtisodiy nazariyalarni ekonometrik tahlil orqali o‘rganib chiqishgan. Olimlarning ilmiy yutug‘i hududiy darajadagi farqlarni aniqlanib, Spatial Durbin modeli kiritilishi orqali qo‘shni hududlar ta’siri “Hududlararo ta’sir

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

effekti" ko‘rib chiqilgan [1]. Ish haqi modellari, mehnat bozorining hududiy jihatdan farqlanishi va samaradorlik nazariyalarini maqolaning nazariy asos sifatida keltirib o‘tishgan.

Norvegiyada davlat sektori va xususiy sektor ish haqi farqlari, gender va geografik heterogenlik bo‘yicha tahlil Jørn Rattsø va Hildegunn E Stokke tomonidan olib borilgan. Ushbu maqolaning ilmiy yutug‘i shundan iboratki, davlat sektori ish haqi "siqilish" (ing. wage compression terminidan kelib chiqqan) fenomeni hududiy va jinsning o‘zgaruvchilar bilan qanday bog‘liqligini aniqlash; geografik jihatdan katta shaharlar va chekka hududlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib bergan[2]. Olimlar Mincer regressiya, agglomeratsiya nazariyasi, mehnat bozoridagi hududiy farqlarni hisoblab chiqishgan.

G. Belekhovaning "Ish haqi bo'yicha mintaqaviy tafovutlarning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili: shimoli-g‘arbiy federal okrug misolida" nomli maqola Rossiyaning shimol-g‘arbiy federal okrugida ish haqi hududiy tafovutlarini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlilini keltirib o‘tgan. Ushbu ilmiy ishning boshqalaridan ajralib turadigan jihati shundaki, hududiy darajada mahalliy-iqtisodiy va mehnat bozorining norasmiyligi, ish haqi darajasining real qiymatini belgilovchi ko‘plab omillarni aniqlagan. Nazariy jihatdan esa hududiy-iqtisodiy rivojlanish nazariyalari, mehnat bozorining hududiy strukturasi yoritib bergan [3].

Dominik Hartmann va Flavio L. Pinheirolar tomonidan tadqiq qilingan "Economic complexity and inequality at the national and regional level" nomli maqolada olimlar milliy va regional darajada iqtisodiy murakkablik hamda tengsizlik o‘rtasidagi integratsiyalashuv jarayonining tahlilini olib bosrishgan. Maqola mintaqaviy darajadagi murakkablik va ish haqi, shu bilan birga tengsizlik dinamikasi o‘rtasida ilgarilari e'tibordan chetda qolgan bog‘liqliklarni ko‘rsatib berigan. Iqtisodiy jihatdan qaralganda murakkablikka ega ushbu ilmiy ish, agglomeratsiya, hududiy jihatdan markaz va chekka hududlar nazariyalarini o‘zida mujassamlashtirgan [4].

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Zulxumor Tojiyeva va Lutfullo Ibragimovlar tomonidan ishlab chiqilgan “Labour market and employment in Uzbekistan” nomli tadqiqot ishida O‘zbekistonda mehnat bozori va bandlik dinamikasini tahlil qilib, bandlik tuzilishi, ishchi kuchi ishtiroki hamda ishsizlikni keltiirb chiqaruvchi asosiy sabablar o‘rganib chiqilgan. Olimlar O‘zbekistonda demografik vaziyat va ishchi kuchini shakllantirish, fazaviy taqsimlash va ulardan foydalanish masalalari bo‘yicha asosiy tushunchalarni keltirib o‘tishgan. Ishchi kuchini ko‘paytirish jarayonini samarali amalga oshirishda yetakchi omil bo‘lib tabiiy aholi harakati, ya’ni tabiiy ko‘payish xizmat qilar ekan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Samarqand viloyatida o‘rtacha oylik ish haqi dinamikasi tahlil qilingan va kelajak uchun prognozi ishlab chiqilgan. Ushbu prognozni ishlab chiqish jarayonida ma’lumotlar manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining choraklik rasmiy ma’lumotlari tanlandi. Tadqiq usuli sifatida esa ekonometrik modellashtirishning vaqtli qatorlar usuliidan foydalanilib ish haqi darajasining trend, mavsumiylik va tasodifiy omillar komponentlari ajratilib ko‘rsatildi. Ushbu tadqiqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar “Excel” dasturi yordamida qayta ishlandi va prognoz qiymalar hisoblab chiqildi.

Tahlil va natijalar


Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining daromadlari xohishni talabga aylantirar va ish haqi darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etar ekan, ish haqi nafaqat mehnat faoliyati evaziga olinadigan to‘lov, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim iqtisodiy omil ham deb hisoblashimiz mumkin. Ayniqsa, hududiy darajada, xususan Samarqand viloyatida ish haqi dinamikasini chuqur tahlil qilish viloyat iqtisodiy salohiyatini baholash, mehnat bozoridagi tengsizliklarni aniqlash va aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha reja ishlab chiqishga imkon beradi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Iqtisodiy tahlil jarayonida ekonometriya usullari vaqtli qatorlar, regressiya modellari va statistik prognozlash metodlari iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ilmiy asosda bashorat qilishning eng samarali vositalaridan biridir. Ish haqi darajasini vaqtli qatorlar bo‘yicha prognozlash mehnat bozoridagi tendensiyalarni aniqlab berib, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy o‘zgarishlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradi.

Ushbu maqola tadqiqot natijalari amaliy qo‘llash hukumatning aynan bandlikni ta’minlash bo‘limi uchun ahamiyatli bo‘lib, ular viloyatda mehnat siyosatini optimallashtirish, byudjet siyosatini rejalashtirish, ijtimoiy dasturlarni samarali yo‘naltirish ishlarini osonlashtiradi. Quyida keltirilgan rasmda ish haqi darajasini prognozlashtirish orqali erishiladigan natijalarni ko‘rishimiz mumkin.

1-rasm.



1-**rasm.** Ish haqi darajasini prognozlash orqali erishiladigan natijalar.

Samarqand viloyatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish haqini prognozlashtirish kelajakda aynan ijtimoiy sohada aholining qo‘lida qancha mablag‘ bo‘lishi hamda ularning iste’mol qilish darajasini aniqlashga imkon beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Nazariy jihatdan aynan pyl mablag‘lari bilan qoplangan ehtiyojni biz talab kategoriyasi sifatida kirita olganimizdek, oylik ish haqining o‘sish dinamikasi va uning nominal miqdori hudud hamda mamlakat uchun asosiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlab beruvchi omillardan biri hisoblanadi. 1-jadvalda esa viloyat hududida choraklik o‘rtacha oylik ish haqi miqdorini ko‘rib chiqamiz.

1-jadval.

Samarqand viloyatida o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi (choraklik, so‘mda)

Yillar	Choraklar (t)	Miqdorlar
2021	1	2311451.2
	2	2291461.7
	3	2277250.9
	4	2418594
2022	5	2594858.5
	6	2659587.9
	7	2783929.9
	8	2892468
2023	9	3107995.6
	10	3241618.5
	11	3298673.1
	12	3421040.8
2024	13	3701128.9
	14	3830769.4
	15	3887718.8
	16	4021065.8

Manba: Jadvaldagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasining rasmiy sayti taqdim qilgan ma’lumotlari asosida tuzilgan.[2]

Ushbu jadvalda mamlakatimizda Samarqand viloyatida o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi hajmi 2021-2024-yillar bo‘yicha choraklik ma’lumotlari bo‘lib, ushbu ma’lumotlardan foydalanib 2-jadvalni hosil qilamiz.

[2] https://www.stat.uz. Rasmiy veb sayti ma’lumotlari orqali tuzildi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

2-jadval.

Samarqand viloyatida o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi (choraklik, so‘mda)

№	Y (%)	To‘rt chorak bo‘yicha sirg‘aluvchi	To‘rt chorak bo‘yicha sirg‘aluvchi o‘rtacha	Markazlash-tirilgan sirg‘aluvchi o‘rtacha	Mavsumiy tarkibiy qism bahosi	S	T+E=Y-S	T=1963232.0+ 127411.0*t
1	2311451.2	-	-	-	-	39754.2	2271697.0	2090643.0
2	2291461.7	9298757.8	2324689.5	-	-	21348.0	2270113.7	2218054.0
3	2277250.9	9582165.1	2395541.3	2360115.4	-82864.5	-31316.8	2308567.7	2345465.1
4	2418594	9950291.3	2487572.8	2441557.1	-22963.0	-29785.4	2448379.4	2472876.1
5	2594858.5	10456970.3	2614242.6	2550907.7	43950.8	39754.2	2555104.3	2600287.2
6	2659587.9	10930844.3	2732711.1	2673476.8	-13888.9	21348.0	2638239.9	2727698.2
7	2783929.9	11443981.4	2860995.4	2796853.2	-12923.3	-31316.8	2815246.7	2855109.2
8	2892468	12026012	3006503.0	2933749.2	-41281.2	-29785.4	2922253.4	2982520.3
9	3107995.6	12540755.2	3135188.8	3070845.9	37149.7	39754.2	3068241.4	3109931.3
10	3241618.5	13069328	3267332.0	3201260.4	40358.1	21348.0	3220270.5	3237342.4
11	3298673.1	13662461.3	3415615.3	3341473.7	-42800.6	-31316.8	3329989.9	3364753.4
12	3421040.8	14251612.2	3562903.1	3489259.2	-68218.4	-29785.4	3450826.2	3492164.5
13	3701128.9	14840657.9	3710164.5	3636533.8	64595.1	39754.2	3661374.7	3619575.5
14	3830769.4	15440682.9	3860170.7	3785167.6	45601.8	21348.0	3809421.4	3746986.5
15	3887718.8	-	-	-	-	-31316.8	3919035.6	3874397.6
16	4021065.8	-	-	-	-	-29785.4	4050851.2	4001808.6

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

17	4168973.8					39754.2		4129219.7
18	4277978.7					21348.0		4256630.7
19	4352724.9					-31316.8		4384041.8
20	4481667.4					-29785.4		4511452.8
21	4678618.0					39754.2		4638863.8
22	4787622.9					21348.0		4766274.9
23	4862369.1					-31316.8		4893685.9
24	4991311.6					-29785.4		5021097.0

Manba: Ushbu jadvaldagi ma’lumotlar 1-jadvalda berilgan ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Bu yerda to‘rt chorak bo‘yicha sirg‘aluvchi o‘rtacha va markazlashgan sirg‘luvchi o‘rtachalarni topish orqali **S (S-** choraklik tarkibiy qismining o‘rtacha qiymati) topiladi.

T- trend

E- xatolik

T= a+b×t

Bu qismda esa a hamda b ni topish uchun Samarqand viloyatida o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi hajmini asosiy omil va choraklar sonini ta’sir etuvchi omil sifatida regression tahlil amalga oshirildi. Natijada:

a= 1963231.957

b= 127411.0419

T= 1963232.0+127411.0×t tenglamasini keltirib chiqaramiz.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

3-Jadval.

S- choraklik tarkibiy qismi o‘rtacha qimati.

Ko‘rsatkichlar	Yillar	Choraklar			
		I	II	III	IV
	2021	-	-	-82864.4625	-22963.05
	2022	43950.8	-13888.925	-12923.3125	-41281.175
	2023	37149.7	40358.1	-42800.5625	-68218.3875
	2024	64595.1375	45601.8	-	-
Jami		145695.6	72071.0	-138588.3375	-132462.6125
O‘rtacha		36423.90937	18017.74375	-34647.08438	-33115.65312
Mavsumiylik S		39754.18047	21348.01484	-31316.81328	-29785.38203

Manba: Ushbu jadval “Excel” dasturi orqali choraklik tarkibiy qismi o‘rtacha qiymati(**S**)ni hisoblash orqali tuzildi.

Bunda **K**-korrektirovka ya’ni to‘g‘irlovchi koeffitsiyent

$$\boldsymbol{K} = \frac{39754.2 + 21348.0 - 31316.8 + 29785.4}{4} = -3330.27109374999$$

Natijada quyidagi choraklik qiymatlarni hosil qilamiz:

4-jadval.

Choraklik qiymatlar

K=	-3330.271094
Chorak	S
I	39754.18047
II	21348.01484
III	-31316.81328
IV	-29785.38203

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

5-Jadval.

Samarqand viloyatida o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi (so‘m)

Yillar	Miqdorlar
2021	2324689.5
2022	2732711.1
2023	3267332.0
2024	3860170.7
2025	4320336.2
2026	4829980.4

Manba: Ushbu jadvaldagi ma’lumotlar 2-jadvalda berilgan miqdorlarning 1 yildagi o‘rtachasi shaklidagi ko‘rinishidir.

5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2026-yilga borib Samarqand viloyatida o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi hajminining puldagi ifodasi 4829980.4 so‘mni tashkil etishini prognoz qildik. Bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 1.6 martaga oshishi kuzatilishi mumkin ekan.

5-jadval.


Tahlil natijasida hosil bo‘lgan prognozning yuqori va pastki ehtimollik chegaralari.[3]

Vaqt jadvali	Qiymatlar	Prognoz	Past yehtimollik chegarasi	Yuqori yehtimollik chegarasi
2021	2324689.5			
2022	2732711.1			
2023	3267332.0			
2024	3860170.7	3860170.7	3860170.7	3860170.7
2025		4320336.2	4193284.6	4447387.9
2026		4829980.4	4698987.7	4960973.1

Agar tashqi omillar ta’siri qilmasa Samarqand viloyatida o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi miqdori taqriban 2025-2026-yillarda mos ravishda 4320336.2 va 4829980.4 so‘mni tashkil etadi. Yuqoridagi jadvalni grafik shaklda ifodalaymiz.

[3] Ushbu jadvaldagi ma’lumotlar tadqiqotchi tomonidan “Exel” dasturida hisob-kitob orqali hosil qilindi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026



1-Grafik. Prognoz natijasining yuqori va pastlik ehtimollik chegarasining jadvaldagi ko‘rinishi

Umumiy prognoz bo‘yicha shuni aytish mumkinki Samarqand viloyatida o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi o‘zgarish tendensiyasiga ko‘plab omillar ta’sir qiladi.

Xulosa va takliflar

Samarqand viloyatida ish haqi darajasining prognozini ekonometrik modelashtirishning vaqtli qatorlar usuli yordamida shakllantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot, mehnat bozori dinamikasini ilmiy asosda baholash va kelajak uchun prognoz qiymatlarini yaratish imkonini berdi. Tadqiqot davomida regressiya modellari va mavsumiy dekompozitsiya usullaridan foydalanilib, viloyatda ish haqi darajasining barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi aniqladik. Choraklik

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

ma’lumotlar asosida tuzilgan ekonometrik model yordamida ish haqi dinamikasining asosiy komponentlaridan trend, mavsumiy tebranishlar va tasodifiy xatoliklar hisob-kitob ishlari orqali hosil qilindi.

Tendensiyalarni kuzatish natijasida shu aniq bo‘ldiki, viloyat mehnat bozorida ish haqi darajasi yil davomida sezilarli mavsumiy o‘zgarishlar ko‘rsatgan. Bunda yilning dastlabki choraklarida ijobiy, oxirgi choraklarida esa salbiy mavsumiy ta’sir aniqlandi. Ishlab chiqilgan prognoz modeli statistik jihatdan muhim va ishonchli bo‘lib, kelajakdagi ish haqi darajasini ehtimollik chegaralari doirasida bashorat qilish imkonini berdi. Ushbu prognoz natijasini viloyat hokimligi tomonidan rejalashtirilayotgan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, mehnat bozorini tartibga solish va ijtimoiy dasturlar bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish jarayonida ishlatilishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi 3ta taklif ham ishlab chiqildi:

Birinchisi, hududiy mehnat bozori monitoring tizimini takomillashtirish ishlarini yaqin muddat ichida olib borish lozim. Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi va Bandlik huzuridagi viloyat bo‘limi tomonidan ish haqi dinamikasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi zamonaviy monitoring tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Buning uchun choraklik ma’lumotlarni nafaqat umumiy ko‘rinishda, balki tarmoqlar, kasb-hunar va malakaviy darajalari kesimida to‘plash, tahlil qilish va prognozlash ishlari olib borilishi lozim. Bu taklif orqali mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va taklif darajasini normal holatda saqlab turish mumkin va taqchillik mavjud bo‘lgan kasblarni aniqlash mumkin.

Ikkinchisi, mavsumiy omillarni hisobga olgan ish haqi siyosatini ishlab chiqish lozim. Yuqorida ko‘rib chiqganimizdek, ish haqi darajasida sezilarli mavsumiy tebranishlar mavjudlig ekan. Shu munosabat bilan, viloyat hokimligi va bandlik organlari tomonidan mavsumiy omillarni inobatga oluvchi moslashuvchan ish haqi va bandlik siyosatini bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirish taklif etiladi. Bunga namuna sifatida esa, yilning III va IV choraklarida ish haqi darajasining nisbatan pasayishi kutilayotgan davrlarda aholini qo‘shimcha ish bilan ta’minlash,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

mavsumiy ishlar yaratish va kasbga o‘rgatish dasturlarini kuchaytirish zarurligida ko rishimiz mumkin. I va II choraklardagi ish haqi o‘sishidan foydalanib, jamg‘arma fondlarini shakllantirish va ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Uchinchisi, ish haqi prognozlarini hududiy iqtisodiy rejalashtirish jarayoni bilan birlashtirish lozim. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi hamda Byudjet-moliya boshqarmasi tomonidan ish haqi prognozlarini yillik va o‘rta muddatli iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturlarini institut va universitetlarda tarqatish lozim. Natijada ushbu mehnat bozoriga oid statistik ma’lumotlar bilan bo‘lajak kadrlar bahramand bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Agata Luśtyk, Anna Połeć, Inna Voznyuk olimlar tomonidan ishlab chiqilgan “Wage Differences in Poland at the County Level and their Determinants,” *Central European Economic Journal*, vol. 11, no. 58, Jan. 2024, pp. –. DOI: 10.2478/ceej-2024-0028. https://reference-global.com/article/10.2478/ceej-2024-0028

[2] Jørn Rattsø, Hildegunn E Stokke, “Public sector wage compression and wage inequality: gender and geographic heterogeneity, Oxford Economic Papers”, Volume 76, Issue 3, July 2024, Pages 722–740, https://doi.org/10.1093/oep/gpad040

[3] G. Belekhova, “A socio-economic analysis of regional disparities in wages: the case of the northwestern federal district,” *Society and Economics*, no. 6, 2025, pp. 19-33. DOI: 10.31857/S0207367625060026. https://rjsvd.com/0207-3676/article/ view/687357

[4] A. Hartmann and F. L. Pinheiro, “Economic complexity and inequality at the national and regional level,” arXiv, June 2022. https://arxiv.org/abs/2206.00818

[5] T. Tojiyeva and S. Ibragimov, “Labour market and employment in Uzbekistan”, *Geograficky Casopis / Geographical Journal*, vol. 73, no. 4, pp. 359-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

374, 2021. Available: https://www.researchgate.net/publication/357237563_Labour_market_and_employment_in_Uzbekistan

[6] J. Mincer, "*Schooling, Experience, and Earnings"*. New York: National Bureau of Economic Research, 1974.

[7] H. A. Patrinos, "Estimating the return to schooling using the Mincer equation", *IZA World of Labor*, vol. 278, pp. 1-10, July 2016. DOI: 10.15185/izawol.278. Available: https://wol.iza.org/uploads/articles/278/pdfs/estimating-return-to-schooling-using-mincer-equation.pdf

[8] D. Card and A. B. Krueger, "Minimum wages and employment: A case study of the fast-food industry in New Jersey and Pennsylvania", *American Economic Review*, vol. 84, no. 4, pp. 772-793, Sep. 1994. Available: https://www.nber.org/papers/w4509

[9] T. Lemieux, "Increasing residual wage inequality: Composition effects, noisy data, or rising demand for skill?" *American Economic Review*, vol. 96, no. 3, pp. 461-498, June 2006. DOI: 10.1257/aer.96.3.461. Available: https://www.aeaweb. org/articles?id=10.1257/aer.96.3.461

[10] "The influence of demographic factors on employment and labor market (a case study of Samarkand Region)", *ACADEMICIA*, 2024. Available: https://www.academia.edu/47419313/The_influence_of_demographic_factors_on_employment_and_labor_market_a_case_study_of_Samarkand_Region_

[11] "The average salary across the country has increased significantly", *Zamin.uz*, Oct. 26, 2025. Available: https://zamin.uz/en/uzbekistan/164999-the-average-salary-across-the-country-has-increased-significantly.html

Foydalanilgan saytlar

1. https://lex.uz
2. https://stat.uz
3. https://siat.stat.uz